

IHOTA O'RMONZORLARINI BARPO ETISHDA TUPROQQA ISHLOV BERISH VA  
KO'CHAT O'TKAZISH, PARVARISHLASH SUG'ORILADIGAN JOYLARDA  
HIMOYA O'RMONZORLARINI KO'PAYTIRISH

Anvarbekov Islombek Anvarbek o'g'li  
Xushvaqto'v Jamshid Eshmurod o'g'li  
Umarova Fotima Faxriddin qizi

**Annotatsiya:** Ihota o'rmonzorlari agrotexnikasini tashkil etish. Yerni ekishga tayyorlash, ko'chat tanlash va ularni ekishga tayyorlash. Ihota o'rmonzorlarni parvarishlash. Sug'oriladigan yerlardagi himoya o'rmonzorlarining ahamiyati va ularni loyixalashtirish. Sug'oriladigan yerlarda himoya o'rmonzorlarining agrotexnikasi.

**Kalit so'zlar:** o'rmon, shamol, zamonaviy texnologiya, namlik, tuproq, ihota, daraxtzorlar.

**Аннотация:** Организация агротехники ихотских лесов. Подготовка земли к посадке, выбор саженцев и подготовка их к посадке. Уход за окружающими лесами. Значение защитных лесов на орошаемых землях и их планировка. Агротехника защитных лесов на орошаемых землях.

**Ключевые слова:** лес, ветер, современная техника, влага, почва, окружающая среда, роши.

**Abstract:** The effect of the wind on the forest and the effect of the forest on the wind. The importance of water for plants and the response of tree species to humidity. Effect on forest moisture balance. Effects of soil on forests and consumption of mineral substances by trees. Soil demand of tree species and the effect of forest on soil. The importance of determining the type of forest. Morozov G.F. and other scientists' theory about the types of forests. Pogrebnyak P.S. and Sukhachev V.N. the theory of

**Key words:** forest, wind, modern technology, humidity, soil, environment, trees.

### Kirish

Ihota o'rmonzorlari agrotexnikasini tashkil etish. Ihota daraxtzorlari tashkil etadigan maydon birinchi g'alla sug'orish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Dalalarni himoyalovchi o'rmon polosalari kartalar, almashlab ekiladigan dalalar chegaralari bo'ylab o'tkaziladi. Ko'p yillik ilm fan va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, dalalar hamma tomonda o'rmon polosalari bilan berkitilsa (to'g'ri to'rtburchak shaklida) maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu hamda to'rtburchakning asosiy qismini o'rmon polosali qisqa qismini yordamchi o'rmon polosalari egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'rmon polosalari orasidagi masofa, ular 20-25 metrdan oshmasligi darkor. Sug'orish kartasiga muvofiq qo'shimcha 1-2 qatorli tut va past bo'yli meva daraxtlaridan qo'shimcha o'rmon polosalari ham tashkil etish mumkin. Transport va qishloq xo'jalik, mashinalari va mexanizmlarini o'tish uchun yo'l qoldiriladi.

- Yerni ekishga tayyorlash. O'rta Osiyo sharoitlarida dala ihota o'rmonlarini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu sharoitda dala ihota o'rmonlari ham sug'orilmaydigan lalmikor yerlarda hamda sug'oriladigan sharoitlarida o'stiriladi.



- Tabiiy namgarchilik yetilmaydigan lalmikor yerlarda dala ihota o'rmonlarni barpo etish va nam to'plashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

- Sug'oriladigan yerlarda dala ihota o'rmonlarini barpo etish shu joyda o'sadigan qishloq xo'jalik ekinlariga bog'liq bo'lishi kerak.

- Dala ihota o'rmonlari asosan qishloq xo'jalik dalalarida joylashtirilishi munosabati bilan tuproqqa asosan ishlov berish. Qishloq xo'jalik ekinlari va ixota o'rmonlari yaratish uchun birgalikda amalga oshiriladi.

- Sug'oriladigan erlarning paxta dalalari uchun tuproqni sug'orish sistemasi joyning o'rmon meliorativ holatiga bog'liq.

- Shu tuproqlarni o'zlashtirishga;

- Yerni chuqur haydash

- Erta bahorda boronalash

- Yuvish va qo'shimga sug'orishlar

- O'tkazish oldidan kultivatsiyalash kiradilar.

Ihota o'rmonlari uchun yer 35- 40 sm chuqurlikda haydalishi kerak. Sho'r yerlarda sho'r yuvish ishlari olib boriladi. Kam sho'rlangan tuproqni yuvish uchun 1500-2500 m<sup>3</sup> ga suv kerak. Kuchli sho'rlangan tuproqlarga yuvish uchun 3500 dan 6000 m<sup>3</sup> gacha suv kerak. Yuvish 2-3 marta yuviladi. Yuvish oralig'i 4-8 kungacha. Bu usul daraxtzorlarning (ko'chatlarning) yaxshi tutishini va yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlaydi. Ko'chat tanlash va ularni ekishga tayyorlash. Ko'chat tanlash daraxt turlarini joylashtirish tiplari asosida (tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda) amalga oshiriladi.

Ko'chatlarni yaxshi tutib ketishi uchun ularning ildizlarini ekishdan oldin maxsus tayyorlanilgan tuproq nuyon loyihalasiga tikib olinadi. O'zbekiston sharoitida ba'zi hollarda urug' sepish yo'li bilan ham o'rmon polosalari tashkil etiladi, bu holda urug'lar kuzda sepiladi. Ular erta bahorda unib chiqadi, hamda yozning issiq kunlari boshlanishiga ancha o'zini tutib oladi. Ihota o'rmonzorlarini parvarishlash. Ihota daraxtzorlarni parvarishlash qishloq xo'jaligi uchun dalalarni o'zlashtirish bilan birga olib boriladi. Ekilgan ko'chatlar tagi yumshatiladi va vegetatsiya davrida sug'oriladi. Sug'orish tuproq va iqlim sharoitni hisobga olgan holda shimoliy rayonlarda 2-8, janubiy rayonlarda 10-12 marotaba sug'oriladi. Og'ir tuproq sharoitida sug'orish me'yori 800-900 m<sup>3</sup>ga yengil tuproqlarda 600-800 m<sup>3</sup> ga, yer osti suvlarga yaqin bo'lgan joylarda sug'orish normasi 400-500 m<sup>3</sup> ga ni tashkil etadi.

Ekilgan ko'chatlar birinchi yili 5, 2 yili 4,3 yili 3,4 yili va 5 yillarida bir marotabadan tagi yumshatiladi. Yumshatish chuqurligi birinchi yili 12-15 sm, keyinchalik 8-10 sm chuqurlikda ishlov beriladi. Qator oralarini yumshatishda KRT-3 KL-2,6, ChK-3 kultivatorlaridan, qatorlarda esa pluglarga moslamalar PRVM-3, PRVM-11000 lardan foydalaniladi. Sug'oriladigan yerlarda himoya o'rmonzorlarini barpo etish dalani himoyalovchi o'rmon daraxtzorlari sug'oriladigan yerlarning yuqori hosildorlik olish bilan samaradorligini oshirish va ratsional foydalanishda asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Sug'oriladigan maydonlarning o'rmon o'sib rivojlanishiga moyilligi o'rmon yo'q joylarda ularga o'stirish, ihota o'rmonzorlarda turli ahamiyatli yog'ochbop, mevali, texnik daraxt turlarini yetishtirishga dalolat beradi.

Sug'oriladigan yerlarda himoya o'rmonzorlarni loyihalashtirish. O'rmon daraxtzorlari joyning iqlim sharoitini olgan holda, kutiladigan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni o'rganib hududning gidrotexnik inshootlarini tashkil etishi va hududni rejalashtirilgan agrotexnik tadbirlari bilan bog'liq holda loyihalashtiriladi. Sug'orish loyihalarida o'rmon daraxtzorlari masalalari alohida mustaqil bo'lib bo'ladi.

O'rmon daraxtzorlari loyihasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ihotaning joylashishi va eni.
2. Har bir o'rmon daraxtzorlarni turi bo'yicha o'rmonlashtirish ishlarining hajmi.
3. Ihota o'rmonlariga ajratilgan maydon.
4. Daraxt va butalar turlari va aralashtirish sxemalari.
5. Ko'chat miqdorini talabi.
6. Barpo etish va parvarishlash agrotexnikasi.
7. Harajat sistemasi.

Barcha loyihalashtirilgan himoya o'rmon daraxtzorlari sug'orish tizimi rejasiga tushiriladi va sug'orish loyihasi bilan birga tasdiqlanadi. O'rmon daraxtlari loyihalarini tuzishda o'rmon meliorativ, agronom, yer tuzuvchi, agrotexnik, muhandis ishtirok etadi. Sug'oriladigan yerlarda himoya o'rmonzorlarini agrotexnikasi. Tajribalarda ma'lum bo'lishicha sug'oriladigan suvning foyda sarfi 40-50% ni tashkil etadi, ya'ni sug'orish dalalariga ajratilgan suvning asosan 50-60% etib boradi. Suvning asosiy qismi filtratsiyalanadi.

Sug'orish inshootlari tarmoqlari atrofida qo'shimcha filtratsion namlik to'planadi, aeratsiya holatini yomonlashtiradi.

Sug'orish inshootlarini o'rmonlashtirishda quyidagi ko'rsatkichlarni e'tiborga olishi kerak:

1. Suv inshootlarining ishlash rejimi.
2. Suvning filtratsion darajasini.
3. Tuproqning namlik holatini yuqoridagi ko'rsatkichlarini bilgan holatda himoya o'rmonzorlarini tuzish tarkibini aralashtirish sxemasini, agrotexnikasi belgilash maqsadga muvofiqdir.

Himoya o'rmonzorlaridan dalani himoyalovchi o'rmon ihotalarning agrotexnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Ihotalarning joylashishi.
2. Tuproqni ekishga tayyorlash.
3. O'tkazish materiallarini tayyorlash.
4. O'tkazish.
5. Parvarishlash.
6. Xatolarni to'ldirish.
7. Ihota o'rmonzorlarni muhofazalash.

Xulosa

Bu yerda daraxtlar tez o'sadi, baland bo'yli bo'ladi. Ularning chidamligi va hayotiy muddati cho'ziladi. Ular yog'och olish, meva va boshqa ashyolar tayyorlashda yangi manba bo'lib hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarda dalani himoyalovchi ihota o'rmonzorlarini barpo etishning asosiy sharti, bu tabiatning issiq shamol va boshqa ishlar kabi zararli omillarining oldini olishdir. Bu hududlarga ixotalarni tuzishdan asosiy maqsad suvning befoyda bug'lanishini kamaytirishdir. Sug'orish inshootlari atrofidagi daraxtzorlar tuproqning botqoqlanishi va sho'rlanishiga olib keladigan filtrlangan suvlarni o'zlashtiriladi. Suv hovuzlari atrofidagi daraxtzorlar suv yuzasidagi bug'lanishini kamaytiradi va suvni loyqalanishdan saqlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov U. «Mero` sodeystviya estestvennomu vozobnovleniyu v archovnikax O`zbekistana». T: 1960.
2. Ablayev S.M, Dosaxmetov A.O, Yuldashev Ya.X. «O`zbekiston sharoitida terak etishtirish». T.: 1995.
3. Ablayev S.M. «Fistashka», Agropromizdat, M: 1987.
4. Bog`danov P.L. «Dendrologiya». M.: 1974.
5. Bulgin N.Ch. «Dendrologiya». M.: 1985.
6. Gorshenin N.M, Shvidenko A.I. «Lesovodstvo». Lvov. 1977.
7. Nigmatov U. «Mero` sodeystviya estestvennomu vozobnovleniyu v archovnikax O`zbekistana». T: 1960.
8. Usmanov K. «Dendrologiya». T: 1980.